

III. MINTAQA VA TARMOQLAR IQTISODIYOTI

УДК: 631.115.1

AHOLINI QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA‘MINLASHDA DEHQON XO‘JALIKLARIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Ochilova Maftuna Toshpo‘lat qizi –
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tayanch doktoranti

ПРОБЛЕМЫ В ДЕХКАНСКИХ ХОЗЯЙСТВАХ С ОБЕСПЕЧЕНИЕМ НАСЕЛЕНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИЕЙ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ

Очилова Мафтунa Тошпулат кизи - докторант
Каршинского инженерно-экономического института

PROBLEMS IN FARMS WITH PROVIDING THE POPULATION WITH AGRICULTURAL PRODUCTS AND WAYS TO ELIMINATE THEM

Ochilova Maftuna Toshpulat kizi - doctoral student
Karshi Engineering and Economic Institute

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi – dehqon xo‘jaliklari, ularning faoliyatiga doir islohotlar va mavjud muammolar haqida yozilgan. Maqolada dehqon xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi va muammolarni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: agrar soha, qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlik, agrobiznes, dehqon xo‘jaliklari, tomorqa yer egalari.

Аннотация. В данной статье речь идёт о предпринимательской деятельности сельского хозяйства - крестьянских (дехканских) хозяйствах, а также о реформах и существующих проблемах и их решений. В статье анализируется доля и важнейшая роль в сельском хозяйстве дехканских хозяйств.

Ключевые слова: аграрный сектор, предпринимательство в сельском хозяйстве, агробизнес, дехканское хозяйство, землевладелец

Annotation. This article deals with entrepreneurial activities in agriculture - peasant (dekhkan) farms, as well as reforms and existing problems and their solutions. The article analyzes the share and the most important role in agriculture of dekhkan farms,

Key words: agricultural sector, entrepreneurship in agriculture, agribusiness, dekhkan farming, landowner

1. KIRISH

Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar aholi ehtiyojini qondiradigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlashga qaratilgani bilan belgilansa, yana bir tomondan dehqon xo‘jaliklarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Chunki, dehqon xo‘jaliklarini rivojlanishi qishloq aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish va daromad olish manbai bo‘lsa, qayta ishlovchi korxonalar uchun xomashyo yetkazib berishda, davlat uchun aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda va agrar tarmoqni barqaror rivojlantirishida muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda

dehqon xo‘jaliklari aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, qishloq aholisi bandligi va daromadlarini oshirish kabi qator muhim iqtisodiy-ijtimoiy vazifalarni bajarmoqda.

Mamlakatimizda oziq-ovqat ta‘minoti barqarorligini saqlashda dehqon xo‘jaligining o‘rni yuqori bo‘lganligi bois, ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektlarini rivojlantirish bo‘yicha keng miqyosda islohotlar olib borilmoqda. Ammo “dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishda, tizimda bozor mexanizmlarini joriy etishda, ...qishloq

xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini barqaror oshirib borishda hamda yer maydonlaridan samarali foydalanishda qator muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda" [1].

Shu sababli, "tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish" [2] singari masalalar ustuvor vazifa qilib belgilab olindi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish dehqon xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish faoliyatini rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda.

2. MAVZUGA OID ADABIYOT-LAR SHARHI

Qishloq xo'jaligida kichik biznes va oila-viy tadbirkorlik, uning tarkibidagi dehqon xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha xorijlik olimlardan A.V.Chayanov, G.I.Shmelev, A.I.Shapochnikov, S.A.Belozyorov, YE.Budko, A.Bobok, V.Jerebin, A.Romanov, I.G. Kopanev, G.V.Chubukov, A.Rasskazov, Z.I. Kalugina, T.P.Antonova, Z.Temirova, P.N. Sizova, Y.S.Balandin, O.S.Belokrilova, A.Oleynik, G.A.Kaliyev, L.Abalkin, N.Utukin, S.Pirogov va boshqalarning asarlari va ilmiy tadqiqot ishlari natijalari muhim sanaladi.

O'zbekistonda agrar iqtisodiyotda dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yuzasidan A.O'lmasov, B.B.Berkinov, A.M.Jo'rayev, B.T.Salimov, R.X.Husanov, O.Zokirov, S.G'afurov, O'P. Umurzoqov, N.S.Xushmatov, Q.A.Choriyev, S.Hoshimov, O.Mahmudov, N.M.Narzullayev, X.R. Yoqubova, S.N.Usmonov, Y.T.Dodobayev, R.Hakimov, M.CH.Qosimov, R.X.Ergashev, Z.S.Shoxo'jayeva, B.F.Sultanov, A.A. Absamatov, U.Q.Ahmedov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, monografik kuzatuv,

statistik guruhlash, so'rovnoma, matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalariining mamlakat agrar tarmog'idagi o'rni va nufuzi kundan-kunga ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2021 yilning 9 oyining o'zidayoq pandemiyaga qaramasdan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 180,1 trln so'mni tashkil qilib, YAIM tarkibida ushbu sohaning ulushi 25,7 foizga yetdi. Respublika bo'yicha eng ko'p dehqon xo'jaligi mahsulotlari Samarqand viloyatida yetishtirilgan.

Ushbu davr mobaynida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 174 trln so'mni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 84,3 trln so'mni, chorvachilik mahsulotlari – 89,7 trln so'mni tashkil qildi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 72,3 foizi – dehqon xo'jaliklariga, 24,7 foizi – fermer xo'jaliklariga, 3 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Barcha hududlarda eng yuqori ko'rsatkichlar dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatilyapti.

Tahlillarga ko'ra, o'tgan yillar mobaynida o'tkazilgan davlatimizning siyosati, aynan dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalariini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar natijasida respublikamiz bo'yicha 2020 yilda 2000 yilga nisbatan dehqon xo'jaliklari soni 3243,6 ming tadan 5100 ming taga, ekin maydoni esa 401,5 ming gektardan 484,2 ming gektarga, ya'ni qariyb 21 foizga oshgan. Dehqon xo'jaliklari soniga mos ravishda to'g'ri keladigan ekin maydoni ulushi 2000 yilda o'rtacha 0,12 gektarni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yil ushbu ko'rsatkich o'rtacha 0,10 gektarga kamaygan.

Tahlil qilingan yillarda dehqon xo'jaliklari ekin maydonlarining tarkibida ham o'zgarishlar kuzatilgan. Ya'ni, 2020 yilda respublika bo'yicha donli ekinlar maydoni 2000 yilga nisbatan 7,6 foizga oshgan. Ammo jami ekin maydoniga nisbatan ushbu yillarga mos ravishda 48,7 foizdan 43,5 foizga kamaygan. Texnik ekinlar esa 2019 yilda 2000 yilga

nisbatan 74,2 foizga kamaygani holda, 2000 yilda jami ekin maydonining 1,7 foizini egallagan bo'lsa, 2019 yilda ushbu ko'rsatkich 1,1 foizga kamaygan.

Ushbu o'zgarish mamlakatimizda olib borilayotgan oziq-ovqat xavfligini ta'minlash

maqsadida meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik va polizchilik borasida davlatimiz hukumati tomonidan qo'shimcha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bilan izohlanadi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi dehqon xo'jaliklarida ekin maydonlari tarkibi bo'yicha o'zgarish dinamikasi (ming ga hisobida) [3]

Ko'rsatkichlar	Y i l l a r					2020 y 2000 y.ga nisbatan, %da
	2000	2005	2010	2015	2020	
Jami ekin maydoni, shundan:	401,5	441,9	471,5	477,1	483,1	120,3
1. Don ekinlari	195,4	208,2	217,6	211,8	210,4	107,6
<i>jamiga nisbatan, %</i>	<i>48,7</i>	<i>47,1</i>	<i>46,1</i>	<i>44,4</i>	<i>43,5</i>	<i>x</i>
2. Texnik ekinlari	7,0	10,1	8,0	6,2	5,2	74,2
<i>jamiga nisbatan, %</i>	<i>1,7</i>	<i>2,3</i>	<i>1,8</i>	<i>1,3</i>	<i>1,1</i>	<i>x</i>
3. Kartoshka	40,8	50,0	54,3	64,5	68,6	169,8
<i>jamiga nisbatan, %</i>	<i>10,2</i>	<i>11,3</i>	<i>11,5</i>	<i>13,5</i>	<i>14,2</i>	<i>x</i>
4. Sabzavotlar	86,7	99,8	112,6	125,0	130,5	150,5
<i>jamiga nisbatan, %</i>	<i>21,6</i>	<i>22,6</i>	<i>23,9</i>	<i>26,2</i>	<i>27,1</i>	<i>x</i>
5. Oziqbop poliz	15,5	16,7	20,4	25,4	27,1	174,8
<i>jamiga nisbatan, %</i>	<i>3,8</i>	<i>3,8</i>	<i>4,3</i>	<i>5,4</i>	<i>5,6</i>	<i>x</i>
6. Ozuqa ekinlari	56,1	57,1	58,6	44,2	41,3	73,6
<i>jamiga nisbatan, %</i>	<i>14,0</i>	<i>12,9</i>	<i>12,4</i>	<i>9,2</i>	<i>8,5</i>	<i>x</i>

Ammo, 2000 yilda jami ekin maydonining 14,0 foizi (56,1 ming ga)da ozuqa ekinlari joylashtirilgan bo'lsa, 2020 yilga kelib bu ko'rsatkich 8,5 foizga (41,3 ming ga) kamaygan.

Ushbu holat mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirishga to'siq bo'layotgan muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ushbu davr mobaynida mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo'yicha deyarli barcha mahsulot turlari bo'yicha o'sish kuzatilgan. Ya'ni, ushbu davrda don va dukkakli don ishlab chiqarish 1,9 martaga, kartoshka 4,2 martaga, sabzavotlar 3,6 martaga, poliz mahsulotlari 4,1 martaga, meva va rezavorlar 3,5 martaga, uzum – 4,2 martaga oshgan bo'lsa, chorvachilik mahsulotlaridan sut ishlab chiqarish 2,9 martaga, tuxum – 5,7 martaga, jun – 2,6 martaga, asal – 6,7 martaga oshgan (2-jadval).

Ammo dehqon xo'jaliklari yetishtirgan mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri bozorlarda sotib, ko'zlagan daromadlarini olmaydilar.

So'rovnomaga natijalaridan xulosa qilindanda, *birinchidan*, yer maydoni va ekin turlari qancha ko'p bo'lsa, xo'jalik shuncha ko'p daromad olish mumkin. *Ikkinchidan* esa, dehqon xo'jaliklarining ixtisoslashuvi yuqori daromad olishga ta'sir etgan. Masalan, Qashqadaryo viloyatining Kitob, Shaxrisabz va Nishon tumanlarida 0,2-0,3 ga yer maydoniga ega dehqon xo'jaligi tomonidan aholi talab darajasi yuqori bo'lgan malina, qulupnay, smorodina, anor kabi mevalar yetishtirilgan va bular xo'jaliklar xarajatini qoplab, har bir oila a'zosiga o'rtacha 950,5 ming so'mdan daromad keltirishga sabab bo'lgan [4].

2-jadval

 O‘zbekiston Respublikasi dehqon xo‘jaliklarida asosiy qishloq
 xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi [3]

№	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari nomi	O‘lchov birligi	Yillar					2020 yil 2000 yilga nisbatan o‘zgarishi
			2000	2005	2010	2015	2020	
1.	Don va dukkak- likli don	ming t.	758,5	1123,0	1278,8	1482,9	1436,6	1,9 marta
2.	Kartoshka	ming t.	585,5	850,8	1346,4	2043,2	2432,3	4,2 marta
3.	Sabzavotlar	ming t.	1982,7	2716,0	4086,2	6584,7	7162,0	3,6 marta
4.	Poliz	ming t.	286,8	376,5	566,6	915,3	1158,7	4,1 marta
5.	Meva va rezavorlar	ming t.	466,1	566,5	1182,7	1429,4	1620,1	3,5 marta
6.	Uzum		205,8	299,5	582,6	711,1	860,9	4,2 marta
7.	Go‘sh (tirik vaznda)	ming t.	769,4	1002,4	1389,2	1920,7	2238,7	2,9 marta
8.	Sut	ming t.	3401,9	4409,2	5927,8	8635,3	10018,6	2,9 marta
9.	Tuxum	mln. dona	751,8	1165,8	1775,5	3105,5	4294,0	5,7 marta
10.	Jun (fizik vaznda)	ming t.	11,8	15,9	22,0	30,8	30,6	2,6 marta
11.	Asal	tonna	1254,5	1650,6	2523,5	6714,6	8467,2	6,7 marta

So‘rovnomada ishtirok etgan respondentlar shuningdek mavjud muammo sifatida quyidagilarni qayd etishgan:

– dehqon bozorlarining dehqon xo‘jaliklaridan uzoq masofada joylashgani sababli yo‘l xarajatlarining yuqoriligi;

– tuman markazlari va shaharlardagi bozorlarga mahsulot sifatining buzilib, narxi 2-3 barobar tushib ketishi;

– mahsulotlarni tashish uchun ularga transport vositalarining yetishmasligi;

– mavjud chorva mollari talab etiladigan ozuqa bilan ta‘minlashgagi muammolar, ya‘ni ozuqaning qimmatligi va sifat jihatdan talabga javob bermasligi va h.k.

Ayniqsa, 0,25-0,35 ga yer maydoniga ega dehqon xo‘jaliklari ham ozuqa, ham meva-sabzavot hamda poliz mahsulotlarini yetishtirish uchun yetarli emasligini, chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismini yetishtirishlariga qaramay, chorva mollari yem-xashak bazasini mustahkamlash masalasiga e‘tibor kam ekanligini ko‘rsatib o‘tishgan. Ushbu xo‘jaliklar tomonidan go‘sh va sutning 90 foizidan ortig‘ini yetish-

tirayotgan bir vaqtda, ularga ajratilgan umumiy ozuqa maydoni juda kam ko‘rsatkichga ega (17,2 foiz). Bundan tashqari omuxta yem sotib olish ham qimmatga tushmoqda. So‘rovnomada ishtirok etganlarning 26 foizi yem-xashak yetmasligini, 36 foizi yem narxining juda balandligi, 21 foizi mahalliy yemlarni o‘ta sifatsiz ekanligi, 17 foizi ozuqa uchun ekin maydonlarining umuman yo‘qligi ko‘rsatib o‘tilgan [5]. Shuningdek, bir nechta dehqon xo‘jaliklari ko‘rsatayotgan muammolardan yana biri nobud bo‘ladigan mahsulotlari narxining keskin tushib ketishidir. Ular narxining tushishiga sabab – logistik tamoyillarga binoan faoliyat yurituvchi transport tizimining yaratilmaganligidir.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Bunday qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga pomidor, qulupnay, bodring, baqlajon, uzum kabilar kiradi. Demak bu masalani ham ilmiy asosda hal etish kerak. Maxsus taralar, qutilar, brendlar yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- dehqon xo'jaligi yetishtirgan mahsulotlarning tovarlilik darajasini oshirish;

- dehqon xo'jaliklari yetishtirgan mahsulotlarni aholi gavjum joylar, bozorlarga sifatli yetkazish uchun logistik transport tizimini yo'lga qo'yish va takomillashtirish;

- boshqa korxonalarining mustahkam integratsion aloqalar o'rnatish;

- zaruriy resurslar bilan ta'minlash va yetishtirilgan mahsulotlarni dehqon xo'jaliklari uchun qulay bo'lgan sharoitlarda sotishga erishish muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Agrar tarmoqda ishlab chiqarish kuchlarining past darajada rivojlanganligi va yetarli darajada ijtimoiy ko'rinishga kela olmaganligi aholini zaruriy assortimentda va yetarli miqdorda qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyatini bermaydi. Aholi sonining tobora ortib borishi va o'z navbatida, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ham ortib borishi kabi obyektiv sabablar tufayli dehqon xo'ja-

liklarini istiqbolda rivojlantirishga zaruriyat mavjud.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda dehqon xo'jaliklari uchun aniq tartibga solingan, qulay ta'minot tizimi mavjud emas. Dehqon xo'jaliklarini zaruriy resurslar bilan ta'minlash asosan xususiy shaxslar tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu esa, ularning sifatli resurslarni olishga bo'lgan imkoniyatining cheklanishiga olib kelmoqda.

Yuqoridagi muammolarni hal etmay turib, istiqbolda dehqon xo'jaliklarini rivojlantirishning iloji yo'q. Ushbu muammoni hal etishning asosiy yo'llaridan biri mamlakat, viloyat bo'yicha dehqon xo'jaliklarini zaruriy resurslar bilan ta'minlash ishlari bilan shug'ullanuvchi alohida ta'minot – servis xizmati tizimini tashkil etishdir. Shuning uchun fikrimizcha, joylarda bunday tashkilotlarni tashkil qilish orqali dehqon xo'jaliklariga yaqindan amaliy yordam ko'rsatilgan bo'ladi va dehqon xo'jaliklari o'zlarida tug'ilgan har bir muammoni ushbu tashkilotlar orqali hal etishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5199-sonli farmoni, 2017 yil 9 oktabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi-ni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni, 2017 y., 7 fevral.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

4. Самиева Г.Т. ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ДЕҲҚОН ХЎЖАЛИКЛАРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //Иновацион технологиялар. – 2020. – №. 3 (39).

5. Toxirovna S. G. Dehkan Farm-Services To Sustain Food Supply //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – Т. 6. – С. 1-5.

6. Samiyeva G. Dehqon xo'jaliklarini tadqiq etishning nazariy asoslari //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №. 6. – С. 171-176.